



XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 4 - oktabr

VI-58-89-10-135-K/22

Bekobod tuman hokimligi

Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'rsida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi "Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'rsida"gi KQ-213-IV sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'rsida"gi qarorlariga muvofiq joriy yilning iyul-sentabr oylaridan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan 158 ta taklif tushgan bo'lib, shundan 2022-yil 23-avgust kuni tuman ishchi komissiyasi tomonidan 2-sonli yig'ilish bayoniga asosan 124 ta taklif qabul qilingan. Shulardan 4 ta taklif "openbudget.uz" rasmiy veb sayti orqali g'olib deb topildi.

Mahalliy byudjet mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi ustidan nazoratni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'rsida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'lari hisobidan jamoatchilik fikri asosida "openbudget.uz" rasmiy veb sayti orqali g'olib deb topilgan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha manzilli ro'yxat ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Bekobod tumani hokimligining axborot xizmati (A.Mamadaliyev) va "Bekobod ovozi" gazetasi (Yu.Ergashev)ga jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha

ma'lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi A.Qurbonov hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari S.Beknazarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



F. Xudoyberdiyev

Xalq deputatlarini Bekobod tumani Kenjagashining

2022 yil 4 oktabrdagi

VI-58-89-10-135-K/22-son qaroriga

I-Ilova

T/r	Taklif ID	Qisqacha mazmuni	To'plagan ovozlari soni	Amlarga oshirishning aniqlangan qiymati	Xarajalarda bajarilgan	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, budget parametri)	Buyurtmachi tashkilot	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" da shakllangan mablag'		"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" da shakllangan mablag'			
								X	X	5 258 000,0	4 220 000,0		
1	1840600040	Buston MFY Yangi xacet kuchasini asfalt qilish kerak	5747	1 000 000,0	1 000 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodlashtirish boshqarmasi	1840600018	5142	1 120 000,0	1 120 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodlashtirish boshqarmasi
2	1840600064	Nayman MFY Sirdaryo ko'chasini 2,2 km ga asfalt yo'rigizish (shag'al ko'cha) ishlatini amalga oshirish (rasmdagi qizilga olingan jami ko'cha 2,2 km tashkili qiladi).	5355	1 200 000,0	1 200 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodlashtirish boshqarmasi	1840600044	5042	900 000,0	900 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodlashtirish boshqarmasi
3	1840600018	Bitdamlilik mfy darxon berik kuchasi 2000 metr asfalt	5142	1 120 000,0	1 120 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodlashtirish boshqarmasi						
4	1840600044	Nazarboy MFY da 1963 yil Ichimlik suvi linyasi kilingan xozirga kelib Ichimlik suvi sifatini buzilib sog'lig uchun zararli bulib koigan kuchalarda 30% suv chikadi sifatizikup fuqarolar farzandlari uzlati sog'ligi uchun sotvob ichishmokka Maksat: Asosiy yomkisini va trubasini yangilash Suvni sifatini oshirish axolini Xar Bir xonadondni tulik Ichimlik suvi bilan tamirlash kerak.											

		1 038 000,0	Taqsimlanmagan mablag'
--	--	-------------	------------------------